

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BADIY
IJODIY FAOLIYAT FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BADIY IJODIY FAOLIYAT FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida “Badiiy ijodiy faoliyat” fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

1. Badiiy-ijodiy faoliyat
2. Bolalarning ijodiy rivojlanishi
3. Tasviriy faoliyat metodikasi

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Badiiy-ijodiy faoliyat	<p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy, bilim va ko'nikmalarni berish. Ularga qog'oz, karton turlari bilan ishlash va qog'oz, kartondan trafaret, shablon, muhr tayyorlash texnikasini, qog'ozni bo'yash turlarini bajarish texnikasini va xavfsizlik qoidalari; o'yin kulgilar uchun jihozlar yasash, tabiiy, tashlandiq materiallarni qayta ishlash, gazlamadan applikasiya va boshqa materiallarni qayta ishlash yo'llarini o'rgatish; loy(plastilin)dan buyumlar yasash. Rivojlantiruvchi markazlar uchun jihozlar tayyorlash; ijodiy o'yinlar uchun qo'llanmalar, qiziqarli kitobchalar tayyorlash. Gazlamalar bilan ishlash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.</p>	10 ta
2	Bolalarning ijodiy rivojlanishi	<p>Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasining ahamiyati; Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etish va uyushtirish; turli yosh guruhlarida rasm chizishga o'rgatish, loy (plastilin)dan buyum yasashga o'rgatish, bolalarga applikasiyaga o'rgatish; bolalarni qurish-yasashga o'rgatish; qog'oz va tabiiy materiallardan qurish-yasashga o'rgatish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy, bilim va ko'nikmalarni berish. Ularga qog'oz, karton turlari bilan ishlash va qog'oz, kartondan trafaret, shablon, muhr tayyorlash texnikasini, qog'ozni bo'yash turlarini bajarish texnikasini va xavfsizlik qoidalari; o'yin kulgular uchun jihozlar yasash, tabiiy, tashlandiq materiallarni qayta ishlash, gazlamadan applikasiya va boshqa materiallarni qayta ishlash yo'llarini</p>	20 ta

		o'rgatish; loy(plastilin)dan buyumlar yasash. Rivojlantiruvchi markazlar uchun jihozlar tayyorlash; ijodiy o'yinlar uchun qo'llanmalar, qiziqarli kitobchalar tayyorlash.	
3	Tasviriy faoliyat metodikasi	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasining ahamiyati; Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etish va uyushtirish; turli yosh guruhlarida rasm chizishga o'rgatish, loy (plastilin)dan buyum yasashga o'rgatish, bolalarga applikatsiyaga o'rgatish; bolalarni qurish-yasashga o'rgatish; Qog'oz va tabiiy materiallardan qurish-yasashga o'rgatish; Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish.	10 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test

3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori.

2. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi O'RMTV Toshkent-2022 yil.

3. L.Evstafeva, SH.Nabixanova, S.Pak, M.Isxakova, N.Kim, X.U.Rizaeva, L.Nuritdinova va b. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish". (kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida Toshkent 2022 yil.

4. M.Nurmatova, Sh.Hasanova "Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" "Musiqqa" nashriyoti Toshkent -2010 yil.

5. M. SH.Nurmatova, SH.T.Xasanova, D.E.Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2010 yil.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.